

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**Qo‘lyozma huquqida  
UDK: 336.7:658(571.1)**

**XAMZAYEV AZIZBEK NEMATOVICH**

**AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING FOND BOZORIDAGI  
FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”**

**Iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan  
DISSERTATSIYA**

**Ilmiy maslahatchi  
i.f.d., prof. R.X.Karlibaeva**

**TOSHKENT – 2024**



## MUNDARIJA

	<b>KIRISH.....</b>	<b>3</b>
<b>I-BOB.</b>	<b>AKSIYADORLIK JAMIYATLARI FOND BOZORIDAGI FAOLIYATINING ILMIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....</b>	<b>10</b>
1.1.	Aksiyadorlik jamiyatlarining fond bozoridagi faoliyatining iqtisodiy mohiyati va mazmuni.....	10
1.2.	Fond bozori kapital bozorining tarkibiy qismi sifatida.....	20
1.3.	Aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarini fond birjasida birlamchi va ikkilamchi ommaviy joylashtirish.....	28
<b>II - BOB.</b>	<b>AKSIYADORLIK JAMIYATLARI FOND BOZORIDAGI FAOLIYATINING AMALDAGI HOLATI TAHLILI.....</b>	<b>47</b>
2.1.	Aksiyadorlik jamiyatlarining aksiya va obligatsiyalarini fond bozoridagi tahlili.....	47
2.2.	O'zbekistondagi aksiyadorlik jamiyatlarining xalqaro qimmatli qog'ozlar bozoridagi ishtiroki tahlili.....	56
2.3.	Aksiyadorlik jamiyatlarining fond bozoridagi faoliyatini ekonometrik tahlili.....	66
<b>III- BOB.</b>	<b>AKSIYADORLIK JAMIYATLARI QIMMATLI QOG'OZLARINI MILLIY FOND BOZORIDAGI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....</b>	<b>82</b>
3.1.	Aksiyadorlik jamiyatlari qimmatli qog'ozlarini O'zbekiston milliy fond bozoridagi rivojlanishiga salbiy ta'sir etuvchi omillarni bartaraf etish yo'llari.....	82
3.2.	O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlari qimmatli qog'ozlari muomilasini samarali tashkil etish orqali fond bozorini rivojlantirish.....	93
	<b>XULOSA VA TAKLIFLAR.....</b>	<b>119</b>
	<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>122</b>

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

**Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida umumiy qiymati 110,2 trillion dollarga teng 80 ga yaqin yirik fond birjalari faoliyat yuritmoqda ulardan dunyoning ikki yirik birjalari Nyu-York (NYSE) va Nasdaq fond birjalari jahon bozor kapitallashuvining 42,4 foizini nazorat qilmoqda. Xususan, iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan Hindiston davlatining kapitallashuvi sezilarli o'sishni ko'rsatib, 2023 yilda Buyuk Britaniyani ortda qoldirdishiga qaramay, AQSh kapital bozorlari katta farq bilan etakchilik qilishda davom etmoqda<sup>1</sup>. Shuningdek, Jahon ichki qimmatli qog'ozlar bozorining qiymati 2013 yildagi 65,04 trillion dollardan 2022 yilda 98,5 trillion dollargacha o'sdi. 2023-yil iyul holatiga ko'ra, jahon fond birjalarida ro'yxatga olingan mahalliy kompaniyalarning umumiy bozor kapitallashuvi 112 trillion AQSh dollarini tashkil etdi<sup>2</sup>.

Jahon fond bozori amaliyotida ilg'or va zamonaviy tajribani o'rganishga hamda aksiyadorlik jamiyatlarining fond bozoridagi faoliyatida sun'iy intellekt bilan ta'minlangan texnologik qimmatli qog'ozlar, tovar bozori kapitulyatsiyasi bilan bog'liq muammolarni hal etish bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Aksiyadorlik jamiyatlarining fond bozoridagi faoliyatini iqtisodiy jihatdan barqarorligini ta'minlashga erishish yo'llarini aniqlash, aksiyalar narxi barqarorligini ta'minlash, fond bozorida aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalari narxining o'zgarish dinamikasiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish metodologiyasini takomillashtirish masalalari bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida aksiyadorlik jamiyatlarining fond bozoridagi faoliyatini rivojlantirish hamda mamlakatimizda kelgusi 5 yilda fond bozori aylanmasini 200 mln. AQSh dollaridan 7 milliard AQSh dollariga etkazish ko'rsatilgan. Bunda mamlakatimizda kapital harakatini bosqichma-bosqich erkinlashtirish hamda yirik korxonalarini va ulardagi ulushlar (aksiyalar)ni,

---

<sup>1</sup> <https://www.tinkoff.ru/invest/social/profile/TrueProphet/655cb0c6-4e8e-48bd-b0de-bc40bd024983/>

<sup>2</sup> <https://www.statista.com/statistics/710680/global-stock-markets-by-country/>